

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent farmatsevtika instituti
rektori

K.S. Rizayev

“02” 2021y.



**SANOAT FARMATSIYASI VA KOSMETSEVTIKA TA‘LIM
YO‘NALISHLARI BITIRUVCHILARINI “FARMATSIYA” YO‘NALISHI
BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH KURSIGA KIRISH IMTIXONI
DASTURI
FARMAKOLOGIYA FANI BO‘YICHA**

Bilim sohasi: 500 000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot

Ta‘lim sohasi: 510 000 – Sog‘liqni saqlash

Ta‘lim yo‘nalishi:

5510600 – Sanoat farmatsiyasi (dori vositalari)

5510600 – Sanoat farmatsiyasi (Kosmesevtika)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202__ yil "____"
______dagi "____" –sonli buyrug'ining _____ - ilovasi bilan fan dasturi
ro'yhati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha
O'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202__ yil
"____"dagi "____" sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Saidov S.A – "Farmakologiya va klinik farmatsiya" kafedrasini mudiri, t.f.d.;
N.V. Shilsova – "Farmakologiya va klinik farmatsiya" kafedrasini dotsenti, b.f.n.;
Yusupova D.A – "Farmakologiya va klinik farmatsiya" kafedrasini katta o'qituvchisi
Saydaliyeva F.A. - Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasini katta o'qituvchisi
Sultanova R.X - "Farmakologiya va klinik farmatsiya" kafedrasini assistenti

Taqrizchilar:

A.V. Yakubov – Toshkent tibbiyot akademiyasi, klinik farmakologiya kafedrasini
mudiri, professor, t.f.d.;

A.N. Maqsudova – Toshkent farmatsevtika instituti "Toksikologiya, organik va
biologic kimyo" kafedrasini dotsenti, b.f.n. ;

Fan dasturi Toshkent farmatsevtika institutining Markaziy-uslubiy Kengashida
ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan. (202__ yil "____" _____dagi "____" – sonli
bayonnomasi).

KIRISH

Fanning asosiy maqsadi-farmakologiya fanining farmatsevtlar tayyorlashda tutgan o'ri, ahamiyati va uning vazifalari, asosiy dori vositalarining farmakologiyasini ma'ruzalar va auditoriya mashg'ulotlari asosida o'rganishdir.

Bo'lajak mutaxassislar «Farmakologiya» fani bo'yicha dori vositalarining farmakologik ta'sir mexanizmi, ishlatilishi va nojo'ya ta'siri, dorilarning farmakoterapevtik xususiyatlari, dorilar bilan zaharlanish va birinchi yordam, yangi dorilarni izlash va turmushga tatbiq etish, maxsus dorilar qo'llanmalaridan foydalana bilish va ularni taxlil etish, retseptlar yozilishining umumiy qoidalarini bilish, noto'g'ri yozilgan retseptlarni tekshira bilish va ularni to'g'rilash, dorilarni qaysi farmakologik guruxlarga taaluqliligi va ularni boshqa preparatlar bilan almashtira bilish, dori vositalarini farmakodinamikasini va ishlatish qoidalarini bilgan holda taxlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – yangi dori vositalarini izlash, ularni tibbiyot amaliyotiga joriy etish, hamda dorilar yordamida to'qima va a'zolari fiziologik faoliyatini boshqarish, turli kasalliklarni muolaja qilish va oldini olishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarni tibbiyotda qo'llanadigan asosiy dori vositalarining farmakologik xususiyatlari, ta'sir mexanizmi, tasnifi, chiqarilish shakllari va b. bilan tanishtirish va o'rgatishdan iboratdir. Farmakologiya fanini o'qitishni takomillashtirish maqsadida kafedrada multimedia dasturi ishlab chiqilgan.

Fan bo'yicha talabalarining bilimi, ko'nikmasi va malakasiga qo'yiladigan talablar

Dastur buyicha talabalar:

- dori vositalarini farmakologik ta'siri, ta'sir mexanizmi, ishlatilishi va nojo'ya ta'siri;
- dorilarning farmakoterapevtik xususiyatlari;
- dorilar bilan zaharlanish va birinchi yordamni,
- dori vositalarining tasnifini bilishlari kerak;

talaba:

- yangi dorilarni izlash va turmushga tatbiq etish;
- maxsus dorilar ko'llanmalaridan foydalana bilish va ularni taxlil etish;
- yangi dori vositalarini hayvonlarda sinay olish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak:
- talaba:
 - dori vositalariga retseptlar yozish;
 - noto'g'ri yozilgan retseptlarni tekshira bilish va ularni to'g'rilash;
 - dorilarni qaysi farmakologik guruxlarga taaluqligini va ularni boshqa preparatlar bilan almasha bilish:
 - dori vositalarini farmakodinamikasini va farmakokinetik xarakteristikasini bilgan holda samarali va xavfsiz ishlata olish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Farmakologiya fanidan Sanoat farmatsiyasi va Kosmetsevtika ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarini "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash kursiga kirish imtixonini yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Farmakologiya fani normal fiziologiya, patologiya, farmakologik biokimyo, morfologiya, mikrobiologiya, farmakognoziya, umumiy kimyo, fizika, matematika va lotin tili, farmximiya kabi o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Farmakologiya fani yangi dori vositalarini qidirib topish, farmakologik xususiyatlarini o'rganish, tibbiyot amaliyotiga kiritish, eksperimental farmakologik tekshirishlar o'tkazishda muxim o'rin tutadi. Xozirgi paytda O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan dori vositalarining 10-12 % i maxalliy preparatlar xissasiga to'g'ri kelishini hisobga olsak, farmakologik tadqiqotlarning ahamiyati kattaligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalari

Farmakologiya fanini o'qitishda ta'limning zamoaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muxim ahamiyatga egadir. Ma'ruzalarda Internet materiallari, tarqatma materiallar, prezentatsiyalar, multimedia dasturi, slaydlardan, amaliy mashg'ulotlarni o'tishda esa zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

Fanga kirish

Farmakologiya fani tarixi, farmakologiyaga hissa qo'shgan olimlar. Farmakologiyaning bo'limlari, uning amaliy ahamiyati.

Dori vositalari xaqida tushuncha. Dorilarning boshqa omillar bilan uzaro munosabati. Dorilarni dozlash

Dorilarning organizmga kiritish yo'llarining xarakteristikasi, ahamiyati, so'rilish qonunlari va xarakteristikasi. Biosamaradorlik, Dorilarni birga qo'llashda kuzatiladigan o'zgarishlar. Dorilarni metabolizmi, surilishi va organizmdan chikarilishi

Dorilarni birga qo'llashda kuzatiladigan o'zgarishlar. Dorilarni metabolizmi, surilishi va organizmdan chikarilishi. Dorilarning ta'sir turlari

Dorilarning ta'sir turlari: maxalliy va rezorbtiv ta'sir, ularning xarakteristikasi va xar xil omillarga bog'liqligi. Dori vositalarining tanada taqsimlanishi, oqsillar bilan bog'lanishi. Dorilarning samarasi yuzaga chiqishida taqi va ichki omillarning axamiyati. Dorilarning metabolizm yo'llari: metabolik transformatsiya va kon'yugatsiya tug'risida tushuncha. Dorilarning chiqib ketish yo'llarining ahamiyati. Dorilardan zaharlanish, ularni oldini olish va yordam berish tadbirlari.

Dorilarni qo'shib va takror qo'llashda kuzatiladigan o'zgarishlar va ularning amaliy axamiyati. Dorilarni salbiy ta'sirlari. ronofarmakologiya. Dorilar sifatining farmakoiojik nazorati. Dori vositalarining tasnifi

Dorilarni qo'shib va takror qo'llashda kuzatiladigan o'zgarishlar va ularning amaliy axamiyati. Dorilarni salbiy ta'sirlari. Xronofarmakologiya. Dorilar sifatining farmakoiojik nazorati. Dori vositalarining tasnifi

MNS tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi. Narkoz dori vositalari. Etil spirti

Narkoz moddalari, ularning turlari va farmakologik xossalari, ta'sir mexanizmi, bosqichlari. Narkoz vositalarining kombinirlangan xolda ishlatilishi. Etil spirtining farmakologik xossalari. Ularning MNS ga ta'sir ko'rsatishi. Alkogolizmning oqibatlari. Alkogolizmni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari. MNS tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi. Narkoz dori vositalari. Etil spirti

Uxlatuvchi va talvasaga qarshi dori vositalar farmakologiyasi

Uxlatuvchi dori vositalarining farmakologik xossalari, MNS ga ta'siri. Ta'sir mexanizmi. Tutqanoqqa qarshi ishlatiladigan dori vositalari, ularning xarakteristikasi. Parkinsonizmda ishlatiladigan preparatlar. Uxlatuvchi va talvasaga qarshi dori vositalar farmakologiyasi.

Narkotik va nonarkotik analgetiklar

Morfinning MNS-ga tormozlovchi va qo'zg'atuvchi ta'siri. Morfinga zid preparatlar – nalorfin, naloksan. Morfinizm va uning oqibatlari. Sintetik narkotik analgetiklar. Neyroleptoanalgeziya. Nonarkotik dori vositalarining xarakteristikasi va ishlatilishi. Nonarkotik analgetiklar-anilin, pirazolon va salitsil kislota unumlari. Ularning ta'sir mexanizmi. Ishlatilishi va nojo'ya ta'sirlari.

Neyroleptiklar, trankvilizatorlar, sedativ vositalar

Psixosedativ vositalarning xossalari. Neyroleptiklar, trankvilizatorlar, psixosedativ vositalar. Ularning solishtirma ta'rifi, farmakologik ta'siri. Ta'sir etish mexanizmi.

Antidepressantlar va nootrop va serebroprotektor dori vositalari

Antidepressantlar va nootrop, serebroprotektorlar qo'llanilishi ta'sir mexanizmi, ishlatilishi va nojo'ya ta'sirlari, litiy tuzlarining farmakologik xususiyatlari. Ularning preparatlari, ishlatilishi va nojo'ya ta'sirlari. Qo'llashga tavsiyalar.

Psixostimulyator dori vositalar. Analeptiklar va umumiy tonusni oshiruvchi dori vositalar farmakologiyasi

Psixostimulyatorlar, analeptiklar, ularning xususiyatlari, ta'sir mexanizmi. Qo'llashga tavsiyalar. Aqliy va jismoniy ish qobiliyatining ortishi. Salbiy ta'sirlari va qullashga qarshi ko'rsatmalar Analeptiklar, orqa miyaga ta'sir etuvchilar va umumiy tonusni oshiruvchilarning farmakologik xususiyatlari. Ularning preparatlari, ishlatilishi va nojo'ya ta'sirlari.

Periferik nerv tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalar.

M-xolinergik va antixolinesteraz dori vositalar farmakologiyasi

M- xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi vositalar. Ularning tasnifi. Ko'z qorachig'iga, ichki bosimiga va akkomadatsiyasiga, ichki a'zolar silliq muskullariga, sekretiya bezlari xamda Yurakka ta'siri. Xolinesteraza ingibitorlarining qaytar va qaytmas ta'siri.

Adrenomimetiklar, adreno- va simpatolitiklar

Adrenergik tizimga ta'sir etuvchi moddalar tasnifi, α va β adrenomimetiklar. Ularning farmakologik xususiyatlari. α va β adrenoblokatorlar. Yurakka tanlab ta'sir qiluvchi noselektiv va selektiv $\beta_{1,2}$ -adrenoblokatorlar, ta'sir xususiyatlari. Yurak qon tomirlari etishmovchiligida, aritmiyada, gipertoniya kasalligida qo'llanilishi. Simpatolitik vositalar.

N-xolinergik dori vositalar. Ganglioblokatorlar va miorelaksantlar

N-xolinoretseptorlarni bloklovchilar. Ularning korotid tuguni, vegetativ gangliyalar va buyrak usti bezi N-xolinoretseptorlariga ta'siri. Ganglioblokatorlar, miorelaksantlar. Salbiy ta'sirlari va ularning oldini olish tadbirlari. Melliktinni qo'llash xususiyatlari.

Mahalliy anestetiklar. Balg'am ko'chiruvchi dori vositalar

Maxalliy og'riqsizlantiruvchilar, xarakteristikasi, qo'llanilishi. O'rab oluvchi va so'rib oluvchi moddalarning qo'llanilishi. Burishtiruvchi preparatlar. Qitiqlovchi moddalar. Efferent nervlar soxasiga ta'sir kiluvchi vositalar. Maxalliy anestetiklar.

Allergiyaga qarshi. Immunodepressantlar va immunomodulyatorlar.

Vitaminlar

Allergiyada qo'llaniladigan dori vositalar farmakologiyasi. Immunodepressantlar. Immunomodulyatorlar. Allergiyaga qarshi. Immunodepressantlar va immunomodulyatorlar.

Gormonal dori vositalar. Antigormonlar

Vitamin turlari va ularning farmakologik xususiyatlari. Ularning nojo'ya ta'sirlari. Gormonal dori vositalarining farmakologik xususiyatlari va ularning preparatlari.

Kardiotonik dori vositalar farmakologiyasi. Yurak glikozidlarining farmakokinetikasi. Gipoxolesteramin dori vositalar. Antioksidantlar farmakologik ta'siri

Yurak glikozidlari. Asosiy kardiotonik moddalarning solishtirma ta'rifi va klassifikatsiyasi: digitoksin, digoksin va strofantin. Ularning ta'sir tezligi va muddatli, farmakokinetik ko'rsatkichlari va to'planishi. Yurak glikozidlaridan zaharlanish va unda tibbiy yordam. Ateroskleroz va uni davolashda ishlatiladigan vositalar. Ularning farmakologik xususiyatlari, preparatlari, ishlatilishi. Kardiotonik dori vositalar farmakologiyasi. Yurak glikozidlarining farmakokinetikasi. Gipoxolesteramin dori vositalar.

Antianginal dori vositalar farmakologiyasi

Stenokardiya xurujini to'xtatuvchi va uning oldini oluvchi preparatlar-nitroglitserin unumlari, ularning ta'sir mexanizmi, tezligi va davri. Izosorbid dinitrat va mononitrat preparatlari. Miokard infarktini davolashda ishlatiladigan dorilar. Antioksidantlar. va bilvosita ta'sirli antioksidantlar Shilliq muskullar qisqarishida qo'llaniladigan dorilar. Miya tomirlari qisqarishida qo'llaniladigan moddalar. Antianginal dori vositalar farmakologiyasi.

Markaziy va periferik tizimiga ta'sir etuvchi antigipertenziv dori vositalar farmakologiyasi. Miotrop gipotenziv dori vositalari. APF ingibitorlari

Gipotenziv vositalar tasnifi. Neyrotrop, miotrop gipotenziv vositalar, angiotenzin-2 antagonistlari, aldosteron ta'sir mexanizmi va joyi. Peshob xaydovchi (diuretiklar) moddalar gipotenziv ta'siri. Gipertonik krizlarni davolovchi dorilar: diazoksid, natriy nitroprussid, ularning farmakologik xossalari. Markaziy va periferik tizimiga ta'sir

etuvchi antigipertenziv dori vositalar farmakologiyasi. Miotrop gipotenziv dori vositalari. APF ingibitorlari

Antiaritmik dori vositalari. Diuretiklar. Siydik kislotasini chiqarishiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi

Antiaritmik vositalarning ta'siri, mexanizmi va tasnifi. Turli farmakologik gruppalarga mansub, antiaritmik moddalar: β -adrenobloktaorlar (anaprilin, pindalol), kalsiy kalsiy antogonistlari – verapamil (izoptin), aralash ta'sirli antiaritmik moddalar – amidaron, maxaliy ofriksizlantiruvchilar (lidokain) va boshqalar. Antiaritmik moddalar asosiy vakillari farmakokinetikasi. Qo'llashga tavsiyalar.

Suv-tuz almashinuvini ta'minlovchi spetsifik moddalar. Ularning nefronga ta'siri, ta'sir mexanizmi va klassifikatsiyasi. Turli uratlar va toshlarni eritishda peshob rN-ning ahamiyati. Antiaritmik dori vositalari. Diuretiklar. Siydik kislotasini chiqarishiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi.

Qon tizimiga ta'sir etuvchi dorilar farmakologiyasi

Eritropoezni kuchaytiruvchilar, ularning ishlatilishi. Qon yaratilishiga ta'siri. Temir va kobalt preparatlarini qo'shib ishlatish. Sianokoalamin, oksikobalamin, folat kislotasi, V_{12} etishmaydigan kamqonlikda farmakoterapevtik ta'sir mexanizmi.

Eritropoezni susaytiruvchi moddalar. Leykopoezga ta'sir etuvchi moddalar. Ta'sir mexanizmi, ishlatilishi. Ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash uchun tavsiyalar. Qon tizimiga ta'sir etuvchi dorilar farmakologiyasi.

Qon ivishiga ta'sir etuvchi dorilar farmakologiyasi

Qon va to'qimalar gemostatik qobiliyatini tiklovchi moddalar: vitamin K-vikasol, fibrinogen preparatlari, antigemofillin globulin tutuvchi preparatlar, protamin sulfat, fibrinoliz ingibitorlari, aminokapron kislotasi, amben. Maxalliy ta'sir uchun-trombin. Qon zardobi o'rniga qo'llaniladigan dori vositalari. Parenteral oziqlantirish uchun qo'llaniladigan moddalar. Atsidoz xolatiga qarshi moddalar. Qon tizimiga ta'sir etuvchi dorilar farmakologiyasi

Oshqozon ichak sekretsiyasi faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi

Me'da-ichak tizimiga ta'sir etuvchi moddalarning tasnifi, xususiyatlari. Me'da sekretor faoliyatini etishmovchiligi to'ldiruvchi moddalar. Me'da osti bezi va ingichka ichak seretor faoliyati etishmovchiligini to'ldiruvchi moddalar: pankreatin, oraza, pankurmen. o'yg'unlashgan ferment moddalar. Me'da bezlari sekretsiyasini pasaytiruvchi dorilar Me'da devori N_1 -retseptorlarini (gistaminretseptorlar) blokadalovchi moddalarni qo'llashga tavsiyalar. Nojo'ya ta'siri. Antatsid vositalar. Oshqozon ichak sekretsiyasi faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi

Me'da ichak faoliyatini qisqarishiga ta'sir ejtuvchi dori vositalari. Gepatoprotektorlar, Qusish va qusishga qarshi dori vositalari. Bachadon faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalari

O't xaydovchi vositalar. Surgi dorilari ta'sir qilish joyi va mexanizmi. Spastik qabziyatlarda va zaxarlanishda surgu dorini tanlash. Qustiradigan va qusishga qarshi preparatlar.

Bachadon muskullarini kuchaytiruvchi moddalar. Bachadon muskullarini davriy qisqarishlarini keltirib chiqaradigan moddalar: ergometrin va boshqalar: spozmnyaya alkaloidlari, farmakologik xususiyatlari. Qorakosov alkaloidlarining bachadondan qon oqishlariga ta'sir prinsipi.

Bachadon muskulaturasini susaytiruvchi moddalar – partusisten, ritodrin, salbutamol. β -adrenoretseptorlarni kuchaytiruvchi moddalar. Yurak β -adrenoretseptorlarni kuchayishi bilan bog'liq nojo'ya xolatlar. o'zga farmakologik gurux bilan uyg'unlashtirish. Me'da ichak faoliyatini qisqarishiga ta'sir ejtuvchi dori vositalari. Gepatoprotektorlar, Qusish va qusishga qarshi dori vositalari. Bachadon faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalari

Antiseptik va dezinfeksiyalovchi dori vositalar. Sulfanilamidlar, nitrofuran, 8 oksixonolinlar, ftorinolonlar

Antiseptiklar turlari. Dezinfeksiyalovchi dori vositalar farmakologiyasi va qo'llanilishi.

Sulfanilamidlarning kashf etilish tarixi (G.Domagk). Mexanizmi va mikroblarga ta'sir spektri. Ta'sir davri, farmakokinetikasi va me'da-ichak traktidan so'rilish darajasiga qarab klassifikatsiyasining amaliy ahamiyati. Dozalash tartibi. Nitrofuran va oksixinolin unumlari. Antiseptik va dezinfeksiyalovchi dori vositalar. Sulfanilamidlar, nitrofuran, 8 oksixonolinlar, ftorinolonlar

Antibiotiklar

Antibiotiklarning ochilishi tarixi (A.Fleming, Z.V. Ermoleva). Tasnifi. Mikroblarga qarshi ta'sir spektri bo'yicha taqqoslash. Antibiotiklarning tasnifi.

Penitsillinlar. Tetratsiklinlar. Makrolid-antibiotiklar. Eritromitsin, oleandomitsin, uyfunlashgan preparatlar. Levomitsetin guruxi preparatlari. Antibiotiklarning salbiy ta'siri va uni oldini olish chora-tadbirlari. Antibiotiklar farmakologiyasi

Sil, zahm va zamburug'larga qarshi dori vositalar farmakologiyasi

Silga qarshi vositalarni ishlatish prinsiplari (uzoq muddat davolash, uyg'unlashgan kimyoterapiya). Birinchi va ikkinchi qator preparatlari. Zaxmni davolashda benzilpenitsillin preparatlarining roli. Zaxmni davolashda ishlatiladigan boshqa moddalar. Zamburug'larga qarshi preparatlar. Kandidamikozlarda nistatin va

levorinning fungistik ta'siri. Tarqalgan mikrozlarda amfoteritsin axamiyati. Sil, zahm va zamburug'larga qarshi dori vositalar farmakologiyasi

Virusga qarshi, gijja va moxovga qarshi dori vositalar farmakologiyasi

Viruslarga qarshi ishlatiladigan preparatlarining farmakologiyasi. Viruslarga qarshi ishlatiladigan preparatlar. Gijjalarga qarshi moddalar, ta'sir mexanizmi va qo'llash prinsipi. Moxovga qarshi preparatlarining ta'sir mexanizmi va qo'llaniladigan preparatlari. Virusga qarshi, gijja va moxovga qarshi dori vositalar farmakologiyasi

O'smaga qarshi dori vositalar. Dori vositalar bilan zaharlanish. Zaharlanishda dori vositalar bilan yordam berish

Antiblastom vositalar tasnifi. Asosiy guruxlarining sitostatik ta'sir mexanizmi. Ta'sir spektri. Asosiy antiblastom vositalarning xarakteristikasi. Qo'llashga tavsiyalar. o'zga dori moddalari bilan munosabati. Nisbiy ta'sir turlari, ularni davolash va oldini olish.

Dori vositalari bilan zaharlanganda qo'llaniladigan dori vositalar farmakologiyasi. Zaharlanish holatlarida qo'llaniladigan antidotlar turlari. Dori vositalar bilan zaharlanish. Zaharlanishda dori vositalar bilan yordam berish.

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari

- Retsept: yozilish koidalari. Doza va uning o'lchov birliklari. Qattiq dori shakllari. Suyuq dori shakllari: eritma, damlama, qaynatma, aralashmalar, yig'malar, tomchilar, emulsiya va b.
- Sirtga qo'llanadigan suyuqliklar.
- In'eksion dorilar, ularga qo'yilgan talablar. In'eksiyalarni ijobiy va salbiy tomonlari. Huqna turlari, ishlatilishi, bushliqlarni yuvish uchun eritmalar. YUmshoq dori shakllari.
- Farmakologiya fanining umumiy qismini asosiy masalalari tug'risida izox. (Dorilarni tanaga kiritish yo'llari, surilishi va ovkatlar bilan munosabati, biotransformatsiyasi). Dori moddalarining ta'sir turlari va ularning turli omillarga bog'likligi. Xronofarmakologiya.
- Dorilarni qushib va takror qo'llash oqibatlari (sinergizm, antogonizm, taxifilaksiya, tolerantlik, kumulyasiya, sensibilizatsiya va b.)
- Dorilarning metabolizmi, uning turlari, tanadan chiqib ketish yo'llari. Dorilar nomuvofiqligi, salbiy ta'siri. Dorilar sifati ustidan nazorat, biologik standartizatsiya: BTB, MTB.
- Sezuvchi nervlarga ta'sir qiluvchi dori vositalari
- M-xolinomimetiklar va antixolinesteraz vositalar,
- M-xolinolitiklar. N-xolinomimetiklar va N-xolinolitiklar
- α va β - adrenomimetiklar farmakologik xususiyatlari
- α va β – adrenolitiklar, simpatolitiklarning farmakologik xususiyatlari
- Narkoz vositalari, turlari va ularning qisqacha xarakteristikasi.

- Etil spirti va boshqa spirtlar. Alkogolizm va uni davolash usullari.
- Uxlatuvchi dori vositalari. Ularning xarakteristikasi. Tutqanoq va parkinsonizmga qarshi dori vositalari.
- Narkotik analgetiklar, turlari va ishlatilishi. Morfin va uning farmakodinamikasi.
- Nonarkotik analgetiklar farmakologik xarakteristikasi.
- Neyroleptiklar, trankvilizatorlar va sedativ vositalar, litiy tuzlarining farmakologik xususiyatlari
- Antidepressantlar, psixostimulyatorlar, nootrop dori vositalarining farmakologiyasi
- Uzunchoq va orqa miyaga ta'sir etuvchilar va umumiy tonusni oshiruvchi moddalar
- Allergiyaga qarshi va immun tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalari
- Kardiotonik vositalar
- Aritmiyaga qarshi vositalar
- Antianginal moddalar klassifikatsiyasi va ularning farmakologiyasi
- Aterosklerozga qarshi dori vositalari
- Antigipertenziv-gipotenziv dori vositalari
- Peshob haydovchi va peshob qoldiqlarini chiqarishga undovchi vositalar
- Eritropoez va leykopoezga ta'sir qiladigan dori vositalari
- Qon ivish tizimini, trombotsitlar yopishqoqligi va fibrinolizni boshqarishda qo'llanadigan vositalar
- Qon zardobi o'rniga qo'llaniladigan dori vositalari
- Me'da-ichak trakti faoliyatini boshqarishda qo'llaniladigan vositalar Me'da bezlari sekretsiyasini pasaytiruvchi dorilar
- O't haydovchi dori vositalari. Surgi va qusishga qarshi dori vositalar. Gepatoprotektorlar.
- Bachadon faoliyatiga ta'sir etuvchilar.
- Sulfanilamidlar, 8-oksixinolin va nitrofuran unumlari.
- Antibiotiklar.
- Sil, moxov va zaximga qarshi ishlatiladigan dorilar.
- Gijjalarga va zamburug'larga qarshi preparatlar. Antiblastom vositalar

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida rejalashtirilmagan

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o`qituvchining raxbarligi va nazoratida muayyan o`quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko`nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish;
- berilgan mavzular bo`yicha axborot (referat) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash;
- maket, model va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola , anjumanga ma'ruza tayyorlash va x.k..

Amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish bo`yicha kafedra professor – o`qituvchilari tomonidan ko`rsatma va tavsiyalar, masalalar to`plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo`yicha amaliy masala va misollar echish uchun masalalar keltirildi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Dorilarni birga qo`llashda kuzatiladigan o`zgarishlar. Dorilarni metabolizmi, surilishi va organizmdan chikarilishi
2. Dorilarning ta'sir turlari.
3. Periferik nerv tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalar..
4. Mahalliy anestetiklar.
5. Balg'am ko`chiruvchi dori vositalar.
6. M-xolinergik va antixolinesteraz dori vositalar farmakologiyasi
7. N-xolinergik dori vositalar. Gangglioblokatorlar va miorelaksantlar
8. Adrenomimetiklar, adreno- va simpatolitiklar
9. MNS tizimiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi. Narkoz dori vositalari.
10. Etil spirti.
11. Uxlatuvchi va talvasaga qarshi dori vositalar farmakologiyasi.
12. Narkotik va nonarkotik analgetiklar.
13. Neyroleptiklar, trankvilizatorlar, sedativ va antidepressantlar
14. Psixostimulyator va nootrop dori vositalar
15. Analeptiklar va umumiy tonusni oshiruvchi dori vositalar farmakologiyasi.
16. Allergiyaga qarshi. Immunodepressantlar va immunomodulyatorlar. Vitaminlar.
17. Gormonal dori vositalar. Antigormonlar.
18. Kardiotonik dori vositalar farmakologiyasi. Gipoxolesteramin dori vositalar.
19. Antianginal dori vositalar farmakologiyasi
20. Markaziy va periferik tizimiga ta'sir etuvchi antigipertenziv dori vositalar farmakologiyasi. Miotrop gipotenziv dori vositalari. APF ingibitorlari.
21. Antiaritmik dori vositalari. Diuretiklar. Siydik kislotasini chiqarishiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi.
22. Qon tizimiga ta'sir etuvchi dorilar farmakologiyasi.
23. Oshqozon ichak sekretsiyasi faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalar farmakologiyasi.

24. Me'da ichak faoliyatini qisqarishiga ta'sir etuvchi dori vositalari.
25. Gepatoprotektorlar, Qusish va qusishga qarshi dori vositalari.
26. Bachadon faoliyatiga ta'sir etuvchi dori vositalari.
27. Antiseptik va dezinfeksiyalovchi dori vositalar. 28. Sulfañilamidlar, nitrofuran, 8 oksixonolinlar, ftorinolonlar.
29. Antibiotiklar.
30. Sil, zahm va zamburug'larga qarshi dori vositalar farmakologiyasi.
31. Virusga qarshi, gijja va moxovga qarshi dori vositalar farmakologiyasi.
32. O'smaga qarshi dori vositalar.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti

Dasturni uzlashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shuningdek, axborot ta'limi resurslari-multimedia, elektron kutubxona, internet ma'lumotlari va b. dan keng foydalaniladi.

Jumladan:

- markaziy nerv tizimiga ta'sir etuvchi vositalar bo'limi bo'yicha ma'ruzalarda multimedidan,
- ichki a'zolarga ta'sir etuvchi dori vositalari bo'limiga bag'ishlangan ma'ruzalarda prezentatsiya, internet materiallari va slaydlardan,
- umumiy farmakologiyaga oid amaliy mashg'ulotlarni o'tishda aqliy xujum va guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan,
- psixotrop vositalarni o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda elpig'ich pedagogik texnologiyalaridan,
- analgetik vositalarni o'rganishga doir mashg'ulotlarda blits-so'rov pedagogik texnologiyasidan foydalaniladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.
2. Azizova S.S. Farmakologiya. T. Ibn Sino 2002 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Yunusxodjaev A. N. Oslojnenie lekarstvennyx sredstv. O'zbekistonda sog'liqni saqlash, 2005, № 1.
2. Samura B.A. va boshqalar Farmakoterapiya. Xarkov 2000 1-2 tom.

3. Vengerovskiy A. I. Leksii po farmakologii dlya vrachey i farmatsevtov. M. 2006.
4. Yunusxodjaev A. N. i dr. Gosudarstvenniy reestr lekarstvennix sredstv i izdeliy meditsinskogo naznacheniya. T. 2004.
5. Aliev.X.U. Farmakologiyadan ma'ruzalar matni. 2000.
6. Yunusxodjaev.A.N. i dr. Spravochnik osnovnyx lekarstvennyx sredstv Respubliki Uzbekistan. T. 1998 g.
7. Klinicheskie rekomendatsii i farmakologicheskiy spravochnik. Pod red. I.N. Denisova, Yu.I.Shevchenko, F.G.Nazirova. M.2005 g.
8. Xarkevich D.A. Farmakologiya. M. Meditsina 2005 y

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.wikipedia.ru>
3. <http://www.chemist.com>
4. <http://www.himiki.ru>
5. <http://www.organicchem.com>
6. <http://www.Lex.uz>.

Bilim sohasi: 500 000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'limot

Ta'lim sohasi: 510 000 – Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi:

5510600 – Sanoat farmatsiyasi (dori vositalari)

5510600 – Sanoat farmatsiyasi (Kosmetika)